



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING
BUYRUG‘I

2025-yil “14”-may

178-son

Toshkent shahri

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Al-Xorazmiy universitetini tashkil etish hamda axborot texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 30-apreldagi PQ–160-son qarori ijrosini ta‘minlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Al-Xorazmiy universitetini tashkil etish hamda axborot texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 30-apreldagi PQ–160-son qarorida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta‘minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Vazir o‘rinbosarlari, departament, boshqarma va bo‘lim boshliqlari, vazirlik tizimidagi tashkilotlar rahbarlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Al-Xorazmiy universitetini tashkil etish hamda axborot texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 30-apreldagi PQ–160-son qarorini rahbarlik va ijro uchun qabul qilsin.

2. Ta‘lim muassasalari faoliyatini tashkil etish, litsenziyalash, ta‘lim sifatini ta‘minlash departamenti (A. Xoliqov), Urganch davlat universiteti (S. Xo‘janioyozov) 2025/2026-o‘quv yilidan boshlab:

Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Urganch filialida tahsil olayotgan barcha talabalar o‘qishini Urganch davlat universitetining mos bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarida davom ettirishini;

hududning, jumladan, iqtisodiyot tarmoqlarining oliy ma‘lumotli kadrlarga bo‘lgan real ehtiyojlariga muvofiq, Urganch davlat universitetida axborot texnologiyalari, muhandislik, ishlab chiqarish sohalarida kadrlar tayyorlash bo‘yicha qabul parametrlarini oshirib borilishini ta‘minlasin.

3. Moliya-iqtisodiyot va infratuzilmani rivojlantirish boshqarmasi (J. Xalilov), Oliy va professional ta‘lim muassasalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash markazi (O‘. Xidirov) Urganch davlat universiteti (S. Xo‘janioyozov) bilan birgalikda 2025-yil 1-sentabrga qadar Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Urganch filiali bino va inshootlarini Urganch davlat universitetiga operativ boshqaruv huquqi asosida bepul berish bo‘yicha topshirish – qabul qilish dalolatnomalarini rasmiylashtirish choralarini ko‘rsin.

4. Urganch davlat universiteti (S. Xo‘janiyozov) 2025/2026-o‘quv yiliga qadar:

universitetning ustav va tuzilmasini ishlab chiqish, belgilangan tartibda tasdiqlash va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish;

universitet fakultetlari va kafedralari faoliyatini tashkil etish hamda kafedralarni o‘quv-uslubiy va boshqa normativ hujjatlar bilan ta‘minlash;

qo‘shib yuborilishi natijasida oliy ta‘lim tashkilotlarining xodimlari bilan mehnat munosabatlarini amaldagi mehnat qonunchiligiga qat‘iy rioya qilgan holda rasmiylashtirish;

universitetga qo‘shib yuborilayotgan Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Urganch filiali talabalar kontingentini universitetga o‘tkazish;

barcha xodimlar, professor-o‘qituvchilar hamda talabalar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni HEMIS axborot tizimiga kiritish choralari ko‘rsin;

2025-yil uchun budjet hamda budjetdan tashqari to‘lov-kontrakt mablag‘lari bo‘yicha daromadlar va xarajatlar smetasi hamda shtatlar jadvaliga o‘zgartirishlar kiritish bo‘yicha tegishli hujjatlarni ishlab chiqsin, tasdiqlasin va belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazish uchun vazirlikka taqdim etsin.

5. Moliya-iqtisodiyot va infratuzilmani rivojlantirish boshqarmasi (J. Xalilov) Urganch davlat universiteti tomonidan taqdim etilgan 2025-yil uchun budjet va budjetdan tashqari to‘lov-kontrakt mablag‘lari bo‘yicha daromadlar va xarajatlar smetalari hamda shtatlar jadvaliga tegishli o‘zgartirishlar kiritilishini nazorat qilsin.

6. Axborot xizmatlari bo‘limi (N. Abduqunduzova) mazkur qarorning mazmun va mohiyatini ommaviy axborot vositalari orqali jamoatchilikka yetkazilishini ta‘minlasin.

7. Yuridik ta‘minlash bo‘limi (F. Fayziyev) qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish yuzasidan takliflarni **2025-yil 1-iyungacha qadar** Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligiga kiritilsin.

8. Mazkur buyruq ijrosining nazorati vazirning birinchi o‘rinbosari Sh. Daliyev zimmasiga yuklansin.

Vazir



K. Sharipov



Hujjat haqiqiyligini mobil qurilma yordamida QR- kodni skaner qilish orqali tekshirish mumkin